

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK  
VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**IQTISODIYOT FAKULTETI**

**IQTISODIYOT VA MENEJMENT KAFEDRASI**

**60410100-“Iqtisodiyot” kechki ta‘lim yo‘nalishi**

**102-guruh talabalari uchun**

**ULMASOVA OYGUL BAXTIYOROVNAning**

**“Iqtisodiyot nazariyasi 1,2” fanidan**

**“Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib  
borishi”**

**mavzusida ochiq amaliy darsining ishlanmasi**

**Samarqand – 2026**

**Tuzuvchi:**

**O.Ulmasova** – “Iqtisodiyot va menejment ” kafedrası assistenti.

**Taqrizchilar:**

**B.Dusmatov** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, i.f.n (PhD), dotsent

**I.Salamov** – “Iqtisodiyot va menejment” kafedrası dotsenti, i.f.n.

**Kelishildi: O‘quv-uslubiy boshqarma**

**boshlig‘i, v.f.n, dotsent**

**Sh.X. Qurbanov**

**“Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi” mavzusidagi amaliy mashg‘ulot o‘qitish texnologiyasi**

Vaqt-2 soat.	Talabalar soni: 23-nafar.
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Binar amaliy munozara.
Amaliy mashg‘uloti rejasi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va shakllari</li> <li>2. O‘zbekistonning mustaqillikdan keyingi tashqi iqtisodiy siyosati</li> <li>3. O‘zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki</li> <li>4. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining natijalari va istiqbollari</li> </ol>
<p><i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> — xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mazmunini tushuntirish va O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo‘shilish jarayonini yoritishdir.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik qanday shakllanishini tushuntirish,</li> <li>• O‘zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki kabi xalqaro tizimlarga qo‘shilishi ahamiyatini ko‘rsatish,</li> <li>• global iqtisodiyotda mamlakatning o‘rni va istiqbolini ochib berish.</li> </ul> <p>Ya’ni, mavzu O‘zbekistonning dunyo iqtisodiy tizimiga qanday kirib borayotganini qisqa va tushunarli qilib izohlashga xizmat qiladi.</p>	
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. mavzu bo‘yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;</li> <li>2. o‘z fikrini ilgari surish asoslash, muzokara qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish; muammoli vazifalarni yechishni faollashtirishni rag‘batlantirish;</li> <li>3. muammoli vazifalarni yechishda eng yaxshi yechimlarni tanlash va baholash ko‘nikmalarini hosil qilish;</li> </ol> <p>kommunikatsiya, guruhda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.</p>	<p><i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i></p> <p>Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mazmuni, shakllari va ahamiyatini tushunadi.</li> <li>- O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo‘shilish jarayonini izohlay oladi.</li> <li>- O‘zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlardagi ishtirokini tahlil qiladi.</li> <li>- Tashqi savdo, investitsiya va iqtisodiy hamkorlikning mamlakat rivojiga ta’sirini baholay oladi.</li> <li>- Global iqtisodiyotda O‘zbekistonning o‘rni va istiqbollari haqida xulosa chiqaradi.</li> </ul>
O‘qitish usullari va texnikasi	Munozara, muammoli usul. To‘g‘ridan-to‘g‘ri jamoaviy aqliy hujum, BBB jadvali, Ven diagrammasi.
O‘qitish vositalari	O‘quv qo‘llanmalar, o‘quv daftarlari, A4 kattaligidagi qog‘oz, marker, skotch.
O‘qitish shakllari	Frontal, guruh va jamoada ishlash.
O‘qitish sharoitlari	Texnik ta’minlangan, guruhlarda ishlashga moslashtirilgan auditoriya.

**“Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi” mavzusidagi amaliy mashg‘ulotining texnologik kartasi**

Bosqichlar ,vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o‘qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	<p>O‘quv mashg‘ulotining mavzusi maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o‘tkazish rejasini aytadi. O‘qitish guruhlarda ishlash texnologiyasi asosida olib borilishini e‘lon qiladi.</p> <p>Mavzuning tayanch iboralari asosida blits-so‘rov o‘tkazadi.</p> <p>Talabadan javobni eshitadi va mavzu muhokamasi guruhlarga ishlar taqdimotidan so‘ng davom etishini e‘lon qiladi.</p> <p>Har bir talaba guruh bahosiga mos ravishda baho olishini tushuntiradi, guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi (2-ilova). Guruhlarda ishlash natijasi plakat qog‘ozlarda ko‘rsatilishi kerakligini ma‘lum qiladi.</p>	<p>1.1. Tinglaydilar, yozib oladilar.</p> <p>1.2. Savollarga javob beradilar</p>
2-bosqich. Asosiy (20 min.)	<p>2.1. Talabalarni 3 guruhga ajratadi. O‘quv topshiriqlarini tarqatadi (4-ilova). Vazifa butun guruh tomonidan bajarilishini e‘lon qiladi. Vazifani bajarishda darslik, ma‘ruza matnlari va boshqa qo‘llanmalardan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. O‘quv natijalarini eslatadi.</p> <p>Guruhlarda ishlarni boshlashni e‘lon qiladi.</p>	<p>2.1. O‘quv topshiriqlarini baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar.</p> <p>Vazifani bajaradilar</p>
3-bosqich. Taqdimot (45 min.)	<p>Taqdimot va guruhlarda ishlash natijalarini o‘zaro baholashni tashkil etadi. Javoblarni sharhlaydi, bilimlarni umumlashtiradi, vazifani bajarish jarayonidagi asosiy xulosalarga e‘tiborni qaratadi.</p> <p>Munozara uchun savollar beradi (5-ilova).</p>	<p>3.1. Taqdimot qilishadi, qo‘shimchalar qilishadi, baholashadi.</p>
4-bosqich. Yakuniy (5 min.)	<p>Mashg‘ulotga yakun yasaydi, faol ishtirokchilarni rag‘batlantiradi. Kelajakda amaliyot va o‘quv faoliyatidagi ahamiyatini ta‘kidlaydi.</p> <p>Mustaqil ish uchun vazifa beradi.</p>	<p>Tinglaydilar, aniqlashtiradilar.</p> <p>Mustaqil ish uchun vazifani yozib oladilar.</p>

## **Amaliy mashg'ulot mavzusi: Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi.**

(2-soat)

### **Reja;**

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va shakllari
2. O'zbekistonning mustaqillikdan keyingi tashqi iqtisodiy siyosati
3. O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki
4. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining natijalari va istiqbollari

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Mc Connell, Bruc. Economics. 19<sup>th</sup> edition. Mcgraw-hill/Irvin, USA,2014
2. N.Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7<sup>th</sup> edition. Amazon, USA 2014.
3. Paul A. Samuelson, William D. Nordhaus. Economics. 19<sup>th</sup> edition. McCraw-Hill Companies. USA. 2009
4. Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. R T:. "Barkamol fayz media" 2017.-783 R bet
5. O'Imasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. R T:. "Iqtisod Moliya" 2014.-480 R bet
- 6.

### **ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR.**

1. **Xalqaro iqtisodiy integratsiya** - Turli davlatlar iqtisodiyotlarining o'zaro yaqinlashuvi va birlashuvi jarayoni Savdo, investitsiya, ishlab chiqarish va moliya aloqalarining kengayishi
2. **Jahon xo'jaligi (global iqtisodiyot)** - Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotlarining o'zaro bog'langan tizimi , Global ishlab chiqarish va savdo tarmoqlari
3. **Ochiq iqtisodiyot** - Tashqi savdo va investitsiyalarga ochiq bo'lgan iqtisodiy tizim, Import va eksportning erkinlashuvi
4. **Integratsion birlashmalar** - Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik tashkilotlari, erkin savdo hududi, bojxona ittifoqi, umumiy bozor
5. **Tashqi savdo** - Eksport va import operatsiyalari majmui, Mamlakatlar o'rtasidagi tovar va xizmatlar almashinuvi
6. **Investitsiyalar (xorijiy investitsiyalar)** - Chet el kapitalining milliy iqtisodiyotga kirib kelishi, To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TDI)
7. **Globalashuv** - Iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarning global miqyosda birlashishi, Bozorlarning o'zaro bog'liqligining kuchayishi

**8. Raqobatbardoshlik** - Mamlakat mahsulot va xizmatlarining jahon bozorida raqobat qila olish qobiliyati

**9. O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasi** - Jahon savdo tizimiga qo'shilish jarayoni, Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik

**10. Xalqaro tashkilotlar** - Jahon savdo tashkiloti (JST), Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ), Jahon banki va boshqalar bilan hamkorlik

### **JAHON XO'JALIGINING TASHKIL TOPISHI, BOSQICHLARI VA ASOSIY BELGILARI.**

Bozor iqtisodiyoti tabiatan baynalminal va shu sababli ham milliy doiradan tashqari chiqib xalqaro miqyosda tarqaladi. Ammo, bu jarayon uzoq davom etib, tobora yangi va yangi mamlakatlarni, faoliyat turlarini, firma va kompaniyalarni o'z damiga tortadi, g'oyat murakkab iqtisodiy aloqalarni yuzaga keltiradi. Bozor iqtisodiyotining ko'ra asrlik taraqqiyoti natijasida XIX va XX asrlar bo'sag'asida kapitalistik xo'jalik ko'rinishida bo'lgan jahon xo'jaligi vujudga keldi. Bir asr davomida u rivojlanib boradi.

Jahon xo'jaligi xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi va ularning amalga oshib borish vositalarining bir butun yaxlitligidan iborat. Xalqaro mehnat taqsimoti bu xo'jalikning moddiy asosini tashkil etadi. Jahon xo'jaligi ishlab chiqaruvchi kuchlarining asrlar davomidagi rivojlanishi, milliy, regional va umumjahon miqyosida mehnat taqsimotining uzluksiz chuqurlashib borishi, turli mamlakatlar milliy ishlab chiqarishining yakkalangan holatdan chiqishi va ularning asta-sekin davlatlararo xo'jalik tizimiga kirib borishining natijasidir.

Mehnat taqsimoti tovar ishlab chiqarishning umumiy asosi sifatida bozor munosabatlariga olib keladi, ularning rivoji esa milliy doiradagi xo'jaliklarni va alohidalashgan ishlab chiqaruvchilarni dastlab yagona ichki bozorga, keyinchalik esa umumjahon bozori doirasiga tortadi. Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashib borishi mamlakatlar o'rtasidagi fan-texnika, ishlab chiqarish, savdo, iqtisodiy aloqalarning ob'ektiv asosi hisoblanadi va shu tufayli ishlab chiqarishning baynalminallashuvi umumjahon jarayoniga aylanadi. Xullas, xalqaro mehnat taqsimoti R butunjahon xo'jaligining tashkil topishi va rivojlanishining hal qiluvchi omilidir. Jahon xo'jaligining tashkil topishi, turli mamlakatlar va qit'alar o'rtasida muntazam aloqalarning o'rnatilishi tarixan iqtisodiyotning milliy alohidalashuvini jiddiy cheklaydi. Butun er kurrasida mashinalashgan ishlab chiqarish, eng avval yirik sanoat, aloxida mamlakatlar xo'jaligini bir-biriga bog'lab qo'yadi.

Xo'jalik faoliyatining baynalminallashuvi jahonshumul iqtisodiy munosabatlarni butun bashariyat tsivilizatsiyasining yaxlit tayanchiga aylantiradi. Jahon xo'jaligi g'oyat murakkab iqtisodiy aloqalarini anglatadi, bu aloqalar xalqaro miqyosidagi aralash iqtisodiyotiga xos aloqalar bo'lib, mazmunan bir toifadagi munosabatlar emas, u ikki guruh munosabatlarining sintezidan iborat.

Birinchi R sof bozor munosabatlari. Bu bozorda tashkil topgan narx-navo asosida ekvivalent ayirboshlash, o'zaro raqobat, pul bilan muomala qilish, foyda topishga intilish va boshqalar. SHunday munosabatlar davlatlararo aloqalarga, firmalarning

xalqaro faoliyatiga ham xos. Bu munosabatlar iqtisodiy aloqalar tizimida etakchilik qiladi, ammo ular tanho emas.

Ikkinchisi R muntazam hamkorlik va uzaro yordam berish munosabatlari boʻlib, ular ekvivalentlik yoki foyda topish tamoyiliga asoslanmaydi. Bu erda raqobat oʻrniga hamkorlik, doimiy sheriklik aloqalari hukmronlik qiladi va tabiatan ijtimoiy, yaʼni nobozor aloqalari hisoblanadi. Xalqaro munosabatlarda ular ikkilamchi, hali etakchi mavqeiga ega boʻlmaydi.

Xalqaro munosabatlarning tabiatini unda ishtirok etuvchi mamlakatlar milliy doirasidagi munosabatlar belgilaydi. SHu boisdan hozirgi bozor iqtisodiyoti aralash iqtisodiyot boʻlar ekan, unga xos boʻlgan ikki yoqlama munosabat xalqaro doiraga ham tarqaladi.

Jaxon xoʻjaligi munosabat tarzida oʻz obʻekti va subʻektiga ega. Xalqaro miqyosda resurslarning taqsimlanishiga samarali ishlatilishi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, uning kooperatsiyasi, iqtisodiy integratsiya, savdo-sotiq, ilmiytexnikaviy xamkorlik, qoloqlik va qashshoqlikka chek qoʻyish, ekologiyaga putur etkazmaydigan iqtisodiy faoliyat yuritish kabilar umumjahon munosabatlarining obʻekti boʻlsa, turli davlatlar xalqaro va milliy firmalar, baynalminal tashkilotlar ularning subʻekti hisoblanadi.

Jahon xoʻjaligi taraqqiyotining oʻziga xos bir qator belgilari ularda maʼlum qonuniyatlar borligidan darak beradi. Jahon xoʻjaligining oʻzi mehnat taqsimoti mahsuli, lekin bu xoʻjalik uni tobora chuqurlashtirib ishlab chiqarishdagi baynalminallikni kuchaytiradi. Bu esa ixtisoslashuvi asosida xarajatlarni pasaytirish va mahsulotlar, xizmatlar sifatini oshirish imkonini yaratadi.

Jahon xoʻjaligida iqtisodiy aloqalar shakllari oʻzgarib, uning koʻrinishlari koʻpayib boradi, ishtirokchilar doirasi yangi mamlakatlar hisobidan kengayadi. Keyingi yillarda bu doiraga Markaziy Osiyoning yosh davlatlari, jumladan Oʻzbekiston Respublikasi ham kirib keldi.

Aloqalarning chuqurlashuvi xalqaro iqtisodiy integratsiyani yuzaga chiqaradi va integratsiya ularning eng oliy shakliga aylanadi. Mamlakatlararo, mintaqalararo integratsion aloqalar pirovard natijada umumjahon integratsiyasi bilan yakunlanadi.

Jahon xoʻjaligi taraqqiyotida iqtisodiy va no iqtisodiy zurovonlik, tengsizlik va ekspluatatsiyaga asoslangan adolatsiz aloqalarni tsivilizatsiyalashgan, yaʼni tenglikka, barchaning manfaatini hisobga oluvchi adolatli aloqalarga aylanishi yuz beradi, agar yovvoyi bozor iqtisodiyoti birinchi guruh xalqaro aloqalar hukmronlik qilgan boʻlsa, tsivilizatsiyalashgan bozor iqtisodiyoti bosqichida ikkinchi guruh aloqalari etakchi mavqeyda turadi.

Jahon xoʻjaligi kapitalistik shaklda rivojlangan kezlarda unga mustamlakachilik munosabatlari xos boʻlgan. Bundagi iqtisodiy aloqalarning muhim jihatlaridan biri mustamlakalarning kapitalistik mamlakatlar (metropoliyalar) tomonidan ekspluatatsiya qilinishi hisoblangan. Mustamlakachilik tugatilishi bilan jahon xoʻjaligida tenglik va oʻzaro manfaatdorlik qoidalariga asoslangan aloqalar paydo boʻladi. Jahon xoʻjaligining subʻekti boʻlgan turli mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyot darajasi jihatidan bir-biriga yaqinlashuvi xoʻjalikga xos muhim qonuniyat hisoblanadi. Ammo bu ahon miqyosidagi davlatlararo raqobat doirasida boradi, kam rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyoti yuksak taraqqiy etgan mamlakatlarga aylanishi yuz beradi. XIX asr oxirida Angliya sanoati eng rivojlangan mamlakat

bo'lsa, XX asrning 70-yillariga kelib AQSH, Yaponiya, Frantsiya, Germaniya, Kanada va Italiya ham rivojlangan mamlakatlarni tashkil etadi, 80-yillarning o'rtalariga kelib ularning safiga Osiyodagi yangi industrial mamlakatlar deb atalmish Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkok, Singapur, Malayziya va Tailand kelib qo'shildi. Ilgari deyarli hammasi mustamlaka bo'lgan bu mamlakatlar iqtisodiyoti strukturasi yaqindagina rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xos bo'lgan qishloq xo'jaligi va undirma sanoat ustunlik qilardi, jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar juda past, ichki bozor rivojlanmagan edi.

80-yillarning oxiriga kelib vaziyat keskin o'zgardi, Osiyo mamlakatlari jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlarni rivojlanish sur'ati jihatdan quvib o'ta boshladi, 1990 yili YAMMning o'rtacha yillik o'sish sur'ati Janubiy Koreyada 12,2 %ni, Singapur va Tailandda 11 %ni, Malayziyada 8,1%ni tashkil etdi. Jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar darajasi bo'yicha Singapur, Gonkong, Tayvan jahondagi boy davlatlar qatoriga qo'shildi.

Bu mamlakatlarning tashqi savdosi ham yuqori sur'atlar bilan rivojlanmoqda. 1990 yili ularning jami eksporti faqat AQSH, Germaniya va Yaponiya eksporti summasidan kam bo'lgan.

Turli mamlakatlar iqtisodiy darajasining yaqinlashuvi va tenglashuvi tsivilizatsiyalashgan munosabatlar mevasi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning baynalminallashuvi mamlakatlar iqtisodiyotini bir-biriga bog'lab quyadi. SHunday vaziyatda teng huquqli va o'zaro manfaatli aloqalar rivojlangan mamlakatlarning kam rivojlangan mamlakatlarga ta'sirini kuchaytirib, ularning rivojiga ko'maklashadi. Ammo, tsivilizatsiyalashgan munosabatlar mamlakatlar o'rtasidagi tafovutni birdan bartaraf eta olmaydi, chunki o'tmishdagi noteks taraqqiyot natijasida bu tafovutlarning ildizi chuqur bo'ladi. SHu sababli tsivilizatsiyalashgan munosabatlarga o'tish yuz bersada, xalqaro iqtisodiyot tizimida katta farq bo'ladi.

Jahon xo'jaligining yana bir belgisi uning milliy iqtisodiyotga ta'sirining shiddatli bo'lishi va kuchayib borishidir. Milliy iqtisodiyot jahon iqtisodiyotining tarkibiy qismiga aylanadi. CHuqurlashgan mehnat taqsimoti ishlab chiqarishning xalqaro miqyosda ixtisoslashtiradi, natijada hatto ulkan va iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ham boshqalar bilan aloqa qilmay turib, o'z ehtiyojini qondira olmay qoladi, yoki bu ish ser xarajat bo'lib boradi. Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy iqtisodiyot ravnaqining shartiga aylanadi. Iqtisodiyotning baynalminallashuvi muqarrar hodisa bo'lib, jahon xo'jaligida xilma-xil aloqalarni yuzaga keltiradi.

## **GLABALLASHUV JARAYONINING MOHIYATI VA ASOSIY YUNALISHLARI. YANGI XALQARO IQTISODIY TARTIB**

Xalqaro munosabatlarda tenglik va adolat qoidalariga asoslangan hamda barcha mamlakatlarning manfaatlarini nazarda tutuvchi aloqalar yangi iqtisodiy tartibning mazmunini tashkil etadi.

YAngi tartib tayanuvchi uch qoida:

1. Jahon xo'jaligidagi aloqalar tartiblanib turishi zarur va bu ishni turli davlatlar birgalikda siyosiy yo'l bilan bajaradilar.

2. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimining barcha boʻgʻinlari demokratiyalanishi kerak. Har bir davlat oʻz tizimidan qatʼiy nazar shu munosabatlarda ishtirok etishga haqli.

3. Jahon xoʻjaligida yaratilgan mahsulotlar davlatlararo taqsimlanganda rivojlanayotgan yosh mamlakatlar manfaati ham hisobga olinishi shart va shuni taʼminlaydigan vositalar yaratilishi kerak.

Qiyosiy ustunlik nazariyasi. Iqtisodiy rivojlanishning milliy andozasidan jahon andozasiga oʻtish va xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishi mamlakatlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda qatnashishi milliy iqtisodiy manfatlarga qanday darajada javob beradi degan savolni qoʻyadi. Bu savolga javob topishga iqtisod fani ilgari qiziqib kelgan. Jumladan, A.Smit xalqaro taqsimoti masalasini tahlil qilib, qanday tovarlarni eksport qilish va qaysilarini import qilish qulayligi toʻgʻrisida oʻz qarashlarini bayon qilish asosida «mutloq ustunlik» nazariyasini ilgari surgan. D.Rikardo oʻzaro foydali savdo va xalqaro ixtisoslashuvning ancha umumiy printsiplarini shakllantirib, «qiyosiy ustunlik» nazariyasini ishlab chiqqan. U nafaqat milliy xoʻjaliklar oʻrtasidagi, balki milliy xoʻjalik ichidagi mintaqalar, korxonalar oʻrtasidagi har qanday mehnat taqsimotining ustunliklarini asoslab beradi. Rikardo «qiyosiy ustunlik» nazariyasida bir mamlakat boshqa mamlakatga qaraganda barcha tovarlarni ancha past xarajatlar bilan ishlab chiqarsa va hatto, agar bir mamlakatda qiyosiy xarajatlar oʻrtasidagi farq boshqa mamlakatga qaraganda katta boʻlsa ham ayirboshlash maqsadga muvofiq hisoblanishini koʻrsatdi. Rikardo oddiygina qilib ikki mamlakat (Angliya, Portugaliya) va ikki tovar (vino, movut)ni misol qilib oladi. U ishlab chiqarish xarajatlarini shartli ravishda ish vaqti bilan hisoblaydi. Rikardoning misolida Portugaliyada ishlab chiqarish Agliyaga qaraganda ancha samarali.

Biz Rikardoning ishusulidan foydalanib mutloq emas, balki nisbiy samarani taqqoslashimiz zarur. Portugaliyada movut ishlab chiqarishga qilingan xarajatlar, vino ishlab chiqarishga qilingan sarflarning 9-8 qismini tashkil qiladi. Angliyada esa 10-12, yaʼni nisbatan kam. Vino bilan vaziyat qarama-qarshi. Portugaliyada vino ishlab chiqarishga qilingan sarflar, movut ishlab chiqarish uchun qilingan sarflar bilan taqqoslanganda, Angliyaga qaraganda kam  $\frac{8}{9} < \frac{12}{10}$ . Demak, Portugaliya mehnat sarflarini tejash nuqtai nazaridan mehnat va kapitalni vinochilikda toʻplashi va movut ishlab chiqarish uni Angliyadan import qilish bilan almashtirishi foydali. Angliya uchun movut ishlab chiqarishga ixtisoslashuv foydali, chunki u qiyosiy ustunlikka ega.

Agar mamlakatlar oʻrtasida savdo-sotiq boshlansa, bunda Angliya ishlab chiqarilgan nisbatan arzon movut, avvalo uning Portugaliyadagi ishlab chiqaruvchilarini jahon bozorida siqib chiqaradi. Portugaliyaning vino ishlab chiqarishga, Angliyaning esa movut ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi har ikki mamlakatga foyda keltiradi. Bunday ixtisoslashuvdan aholi ham yutadi. Bir xil pul daromadi portugaliyaliklarga koʻproq arzon import movut va angliyaliklarga koʻproq arzon portugaliya vinosini sotib olish imkonini beradi. Boshqacha aytganda, real ish haqi koʻpayadi.

Rikardoning misolida inflyatsiya va ishsizlik, mehnat unumdorligidagi oʻzgarishlar va eksportli tarmoqlarga davlat tomonidan kiritiladigan cheklashlar hisobga olinmaydi.

Xalqaro ayirboshlashda davlat tomonidan cheklashlar hisobga olinadigan samarani yaxshi tushunish uchun, davlat proteksionistik tadbirlar qoʻllaydi deb faraz qilamiz. Aytaylik, portugaliyaliklar mahalliy toʻqimachilik sanoati uchun bojxona himoyasini talab qiladi. Bunday himoya taqiqlovchi xarakterga ega boʻlmasligi mumkin, chunki bojxona toʻlovlari, soliqlar va boshqa tadbirlar yordamida angliya movutining narxi sunʼiy ravishda oshiriladi. Xuddi shunday mahalliy tovarlar narxi ham koʻtariladi. Har ikkala mamlakat milliy tarmoqlari rentabelligining barobarlashuvi roʻy beradi. Ueumdor vinochilik tarmogʻiga kapital va ishchi kuchining tarmoqlararo oqib oʻtishiga ragʻbat boʻlmaydi. Chunki mohiyat bilan faqat ancha qoloq tarmoqni sunʼiy ushlab turish holati roʻy beradi.

Savdo erkinligini toʻliq cheklovchi, taqiqlovchi tariflar yanada salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ishlab chiqaruvchilar davlat himoyasida narxlarni shunday oshirishi mumkinki, natijada toʻqimachilik ishlab chiqarishi vinochilikka qaraganda foydali boʻlib qoladi.

Bojxona tariflari va kvotalarini kiritish aholining real ish haqining pasayishiga olib kelishi ham mumkin. Chunki ancha yuqori narxlarga toʻqnash kelgan isteʼmolchilar oʻzlarining isteʼmolini qisqartirishga majbur qiladi.

Mamlakatlar oʻrtasida xalqaro savdo munosabatlari oʻrnatilganda ayirboshlash qanday nisbatlar asosida roʻy beradi degan savol tugʻiladi. Rikardoning xalqaro ixtisoslashuv ustunliklari haqidagi xulosalari, bu muammoni chuqurroq tadqiq qilish uchun boshlangich nuqta boʻladi. Jumladan, Dj.Mill ishlab chiqarish xarajatlarining turli nisbatlari oʻrtasida oʻrnatiladigan almashuv mutanosibliigi tovarlar bu turlaridan har biriga jahon taklifi va talabi hajmiga bogʻliq ekanligini koʻrsatadi.

Iqtisodiy nazariyada xalqaro ixtisoslashuvning ustunliklarini asoslash Rikardoning klassik sxema bilan cheklanmagan. XX asrda xalqaro ixtisoslashuvning qonuniyatlarini koʻplab iqtisodchilar: jumladan, S.Xeksher, B.Olin, Dj.Keysen, V.Leontev va boshqalar tomonidan tadqiq qilindi. Xalqaro ixtisoslashuvning qonuniyatlarini yanada chuqurroq tushunish qiyosiy xarajatlar tahlili asosida koʻp omilli andoza tuzishga olib keldiki, unda tovarlar xarakati bilan birga ishlab chiqarish omillarining davlatlararo erkin xarakati imkoniyatlari hisobga olindi. Oʻtkazilgan tadqiqotlar nafaqat tarmoqlararo, balki tarmoqlar ichida va mintaqa oʻrtasidagi ixtisoslashuvning qonuniyatlari, mamlakatning metarial kapital, mehnat va fan sigʻimiga tovarlarga ixtisoslashuv sabablari ochib berildi. Ixtisoslashuvga fan va texnika taraqqiyoti hamda texnologik oʻzgarishlar surʼati va xarakteri taʼsirining xususiyatlari aniqlanadi.

Kapitalning xalqaro xarakati R bu kapitalning chet elda joylashtirilishi va faoliyat qilishi. U chet elga qoʻyidagi shakllarda chiqariladi:

-xususiy yoki davlat kapitali shaklida; Kapitalning xalqaro tashkilotlar yoʻli bilan harakati koʻpincha mustaqil shakl sifatida ajratiladi;

-pul va tovar shaklida; Jumladan, kapital chiqarish mashina va uskunalari, patentlar, nau-xau hamda tovar kreditlari shaklida boʻlishi mumkin.

-qisqa va uzoq muddatli kreditlar shaklida;

-ssuda va tadbirkorlik shaklida. Ssuda shaklidagi kapital qoʻyilmalar boʻyicha foiz, tadbirkorlik shaklidagi kapital esa foyda keltiradi. Tadbirkorlik kapitali toʻgʻridan-toʻgʻri va protfelli investitsiyalardan iborat boʻladi. Toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalar

shu kapital hisobiga qurilgan ob'ekt (korxonalar) ustidan nazorat qilish huquqini beradi, portfelli investitsiyalar esa bunday huquqni bermaydi. U odatda aktsiya paketlari, hamda obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar shaklida beriladi.

Hozirgi davrda kapital chiqarishning turli tuman shakllaridan to'g'ridan-to'g'ri xususiy investitsiyalar, xalqaro moliyaviy muassasalar kreditlari, davlat qarzlari alohida o'rin tutib, rivojlanib va chuqurlashib borayotgan jahon jo'jalik aloqalarining muhim harakatlantiruvchi kuchi bo'lib qoldi. Agar XX asrning birinchi yarmi uchun kapital oqimining asosiy yo'nalishi rivojlanayotgan mamlakatlar hisoblansa, oxirgi o'n yilliklar kapitalning rivojlangan mamlakatlari o'rtasida o'zaro oqimining kuchayishi bilan xarakterlanadi.

Keyingi yillarda kapitalning xalqaro harakati sohasidagi yangi tamoyillarga investitsiyalar oqimining rivojlangan mamlakatlarda o'sishi va rivojlanayotgan mamlakatlarda nisbatan qisqarishi bilan birga, qator rivojlangan mamlakatlar yirik kapital eksporterlaridan uning importyorlarga aylanishi, bir qator rivojlanayotgan mamlakatlar esa kapital investorlariga aylanishi, chet el kompaniyalarining Evropa hamjamiyati mamlakatlaridagi faolligining o'sishi, chet el investitsiyalari hajmining SHarqiy Evropa va MDH mamlakatlaridaga o'sishi kabilarni ta'kidlash mumkin. SHu bilan birga kapital eksportni xalqaro iqtisodiy aloqalarda uskunalarni uzoq muddatli ijaraga berish (lizing), muhandislik qurilish xizmati, texnologik, moliyaviy va boshqa xizmatlar ko'rsatish kabi yangi shakllarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Hozirgi davrda chet elda faoliyat qiluvchi kapital miqdori juda katta. 1996 yilda butun dunyoda jamg'arilgan faqat to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar 3 trln. Dollar atrofidagi summani tashkil qilgan. BMT ma'lumotlari bo'yicha chet el kapitaliga asoslangan korxonalarda 1993 yil 6 trln.dollarlik tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilgan.

Dunyoda 40 ming transmilliy kompaniyalar (TMK) ning 270 mingdan ko'proq chet el filiallari hisobga olingan.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ancha murakkab jihatlaridan biri ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi hisoblanib u o'z ifodasini mehnat resurslarining ancha qulay sharoitda ish bilan ta'minlash maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tishda topadi.

Xalqaro migratsiya jarayonini iqtisodiy omillar bilan birga siyosiy, etnik, madaniy, oilaviy va boshqa xarakterdagi omillar ham taqozo qiladi. Xalqaro migratsiya ikkita asosiy tarkibiy qismni o'z ichiga oladi: emigratsiya va immigratsiya. Emigratsiya R mamlakatlardan doimiy yashash joyiga chiqib ketishni, immigratsiya R mamlakatga doimiy yashash uchun kirib kelishni bildiradi.

Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan ob'ektiv jarayon. Xo'jalik hayotining baynalminallashuvi o'sishi bilan xalqaro migratsiyaning ahamiyati ham ortib boradi. Xalqaro migratsiyaning asosiy oqimi keyingi o'n yilliklarda AQSHga to'g'ri keladi. 80 yillarda AQSH aholisi o'sishning 39 % immigrantlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Migrantlar jalb qilinadigan boshqa yirik markaz G'arbiy Evropa hisoblanadi. Bu mamlakatlarda chet el ishchi kuchining o'rtacha yillik o'sishi 600 ming kishini tashkil qiladi. (Oila a'zolari bilan birga 1,3 mln. kishiga yaqin). Evropada immigratsiya miqyosi bo'yicha Germaniya, Frantsiya va Angliya etakchi o'rinda turadi.

Fan-texnika yutuqlari bilan xalqaro ayirboshlash har-bir shakllarda amalga oshiriladi. U ilmiy-texnikaviy axborotlar, mutaxassislar, fan sohasi xodimlari bilan ayirboshlashni, tadqiqot va yangiliklarni letsenziya asosida berishni, ilmiy tadqiqot ishlari o'tkazishni, umumiy fan-texnika va texnologiyani ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma tadbirkorlikni o'z ichiga oladi.

Jahon infrastrukturasi. Tovarlar, ishchi kuchi, moliyaviy vositalarning milliy chegaralar orqali to'xtovsiz o'sib boruvchi harakati butun jahon infrastrukturasi rivojlanishi va takomillashuvini tezlashtiradi. Juda muhim transport tizimi (dengshiz, daryo, havo, temir-yo'l transporti) bilan bir qatorda jahon iqtisodiyotining rivojlanishida axborot kommunikatsiyalar tarmog'i tobora ko'proq ahamiyat kasb etib boradi. Munosib umumjahon infrastrukturasi bo'lmasa, hozirgi ishlab chiqaruvchi kuchlarning baynalminallashuvini rivojlantirib bo'lmaydi. Bunday infrastrukturaning ayrim tarkibiy qismlari jaxon savdosi vujudga kelayotgan, jahon bozori tashkil topayotgan vaqtda paydo bo'lgan.

Dengiz kemachiligi qadim zamonlardan beri qit'alarni bir-biriga bog'lab kelgan bo'lsa, zamonaviy infrastruktura jahon xo'jaligi tarkib topgan sharoitdagina mustaqil ahamiyatga ega bo'ladi. U so'nggi o'n yilliklarda, dunyo mamlatlarini bog'lovchi barcha bo'g'inlarning mustahkamlanishi asosida yana ko'proq o'sdi.

Hozirgi jahon yuk tashish tizimi dengiz, daryo, havo, temir-yo'l va avtomobil transportini o'z ichiga oladi. Har-bir yuk tashish turi transport vositalari uchun ularning ishlash sharoiti R yo'llar, portlar, ombor xo'jaligi, harakat qoidalari, yuk hamda passajirlar tashish va shu kabilar uchun umumjahon o'lchovlariga ega bo'ladi. Mazkur masalalarni kelishib hal etishni barcha mamlakatlarni o'zaro bog'lovchi jahon transport yo'llarining rivojlangan tizimi zarur qilib qo'yadi. Jahon iqtisodiyotini rivojlantirish uchun yuk tashishning ahamiyati benihoyat katta. Keyingi yillarda xalqaro quvurlar o'tkazish keng yoyildi: ulardan gaz, neft, neft mahsulotlarini oqizish uchun keng foydalanilmoqda. Quvur transporti Evropa, Osiyo mamlakatlari, Amerika qit'asidagi davlatlarni bir-biriga bog'lamoqda. Fan-texnika revolyutsiyasi tobora katta ahamiyat kasb etmoqda.

Texnika taraqqiyoti darajaga etdiki, radio va telesignallar uchun, sun'iy yo'ldoshlar va kosmik aloqadan keng foydalanish uchun hech qanday to'siqlar yo'q. Tegishli axborotni tezda va o'z vaqtida olish ko'p hujalik tarmoqlari uchun nihoyatda muhim bo'lgan meteriologik vaziyatni doimo nazorat etib va prognoz qilib turishga imkon beradi, iqtisodiy taraqqiyot bilan bevosita bog'liq bo'lgan ko'pgina masalalarni hal qilishni (tovar va valyuta bozorlarining ahvolini, yo'lda ketayotgan yuklarning qaerga etganligini va hokazolarni bilib turishni) tezlashtiradi.

Xalqaro ayirboshlash tovarlarda materiallashgan shakllardan nomaterial aloqalarga tobora ko'proq o'rin bo'shatadi, ya'ni fan-texnika yutuqlari, ishlab chiqarish va boshqa tajribasi, xizmatning boshqa turlari bilan ayirboshlash o'sib boradi. Hisob-kitoblarga ko'ra hozirgi kunda xizmatlar jahon yalpi milliy mahsuloti (YAMM)ning 46 foizini tashkil qiladi.

Tashqi savdo bilan bir qatorda tashqi iqtisodiy hamkorlikning boshqa shakllari ham sezilarli darajada kuchayib bormoqda. Respublikada xorijiy sarmoyalar ishtirokida faoliyat yuritayotgan korxonalar tobora ko'paymoqda. Hozirgi vaqtda respublika hududida ruyxatdan o'tkazilgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar 1450 tadan

oshdi, nuqul xorijiy sarmoya bilan ishlovchi korxonalar 110 taga etdi. 1995 yilning boshida O'zbekistonda dunyoning 25 mamlakatiga qarashli xorijiy firma, bank va kompaniyalarning 166 ta vakolatxonasi ishlab turdi. Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki dunyoning 80 ta yirik bankida vakillik hisobini ochgan.

Tashqi savdo aloqalarini kengaytirishni rag'batlantirish maqsadida bir talay imtiyozlar joriy etildi. Avvalo, tovarlarni import qilish uchun bojxona to'lovlari bekor qilindi. O'z mahsulotini eksport qilish uchun bojxona to'lovlari ancha kamaytirildi, qo'shma korxonalar mahsulotini eksport qilish uchun esa bojxona to'lovlari olinmaydigan bo'ldi. Valyuta tushumidan soliq olish o'rniga uning 30 foizdan iborat qismini Respublika Markaziy bankiga majburiy sotish joriy etildi.

Korxonalarining eksportdan olingan valyuta tushumlarini moddiy bazani va eksport imkoniyatini kengaytirishga sarflashdan manfaatdorligini oshirish uchun ko'pgina korxonalar valyuta tushumining bir qismini majburiy sotilishdan ozod etildi.

Xorijiy sarmoya ishtirokida korxonalar barpo etish, tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarini ro'yxatdan o'tkazish va chetga chiqariladigan mahsulot uchun ruxsatnoma berish tartibi anchagina soddalashtirildi. Ruxsatnoma asosida chetga chiqariladigan mahsulotlar turlarining soni 1994 yilning o'zida 74 tadan 11 tagacha kamaytirildi. Bularning barchasi tashqi iqtisodiy faoliyatni kuchaytirishga, eksport va import tarkibini yaxshilashga ijobiy ta'sir qildi.

Islohotlarning birinchi bosqichida tashqi savdo ikki yo'nalish bo'ylab: MDH mamlakatlari bilan hukumatlararo bitimlar asosida va xorijiy mamlakatlar bilan erkin muomaladagi valyuta hisob-kitob qilish asosida amalga oshirildi. Bundan tashqari, bevosita tashqi iqtisodiy kooperatsiya aloqalari o'rnatilishi rag'batlantirildi. Jami tashqi savdo oboroti 1993 yilgi darajaga nisbatan 1994 yilda birmuncha oshib, 5053,3 million AQSH dollarini tashkil etdi. SHu jumladan MDH mamlakatlari bilan savdo 2919,7 million dollar va xorijiy mamlakatlar bilan savdo 2133,6 million dollarni tashkil qildi. Jami savdo oborotida xorijiy mamlakatlar bilan savdo-sotiqning ulushi anchagina ko'paydi. Agar 1992 yilda xorijiy mamlakatlarga 870 million AQSH dollari miqdorida mahsulot eksport qilingan bo'lsa, 1993 yilda bu ko'rsatkich 920 million AQSH dollari, 1994 yilda esa 1 mlrd. dan ziyod AQSH dollari miqdoriga etdi. Hozir an'anaviy sheriklar R MDH mamlakatlaridan tashqari eksportning anchagina qismi Turkiya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Gollandiya, Polsha, Koreya Respublikasi, Indoneziya, Malayziya kabi mamlakatlarga to'g'ri keladi.

Biz Markaziy Osiyo davlatlarining ko'p tomonlama aloqalariva yaqin hamkorligini mustahkamlash va rivojlantirishga birinchi darajali hamiyat berayapmiz. Darhaqiqat, Markaziy Osiyodagi qardosh xalqlar mushtarak tarixi, madaniy an'analari birligi, turmush ukladi, ruxiyoti va boshqa ko'p jihatlari birbiriga o'xshashligi bilan to'g'ri ishganlaridek bo'lib ketganlar. Markaziy Osiyo davlatlaridagi hozirgi kungi siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ekologik muammolar ham ko'p jihatdan bir xildir.

Mazkur Respublikalarning iqtisodiyoti bir-biri bilan tutashib ketgan vaular bir-biriga ta'sir etkazib turibdi.

Vujudga kelgan sharoitga asoslanib, Qozog'iston Prezidenti N.Nazarboev bilan 1994 yil 10 yanvar Toshkentda bo'lgan uchrashuvda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida yagona iqtisodiy makonni vujudga keltirish to'g'risida shartnoma imzolandi. Fan, maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash, sayohatchilik va sport sohasidagi hamkorlikni

kuchaytirish to'g'risidagi xo'kumatlararo bitimlar ham imzolandi. YUqorida qayd etilgan shartnoma O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasida tovarlar, xizmatlar, kapitallar, ish kuchining harakatlanishini, bahamjihat kredit, hisob-kitob, byudjet, soliq, narx, bojxona va valyuta siyosatining o'tkazishni kuzda tutadi. Bishkekdagi uchrashuvda Qirg'iziston ham bu shartnomaga qo'shilganligi Markaziy Osiyo mintaqasidagi o'zaro yaqinlashuv jarayonlari chuqurlashuvida yanada katta istiqbollar ochdi.

### 1-ilova.

#### Amaliy mashg'ulotda ishlash tartibi va reglamenti

1. Guruhda ishlash va prezentatsiyani tayyorlash – 20 min.
2. Ish natijalarini prezentatsiya orqali namoyish qilish – 5 min.
3. Jamoa bo`lib ishlash va guruhlarini baholash – 5 min.

### 2-ilova.

#### Guruh bilan ishlash qoidalari

Har biri o`z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;

Har biri berilgan topshiriqlar bo`yicha faol, hamkorlikda va mas`uliyat bilan ishlashlari lozim;

Har biri o`zlariga yordam kerak bo`lganda so`rashlari mumkin; Har biri yordam so`rganlarga ko`mak berishlari lozim;

Har biri guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;

Har biri: “Biz bir kemadamiz, birga cho`kamiz, yoki birga qutilamiz” atamasini yaxshibilishlari lozim.

### 3-ilova.

#### Baholash mezonlari va ko`rsatkichlari (ball)


Guruh	Yondoshuvning (to`liqligi, to`g`riligi)	Grafikda to`g`ri tasvirlash	Guruh faolligi	Muammoni faol yechilishi	Ballar yig`indisi
	(1,0)	(0,6)	(0,4)	(1,0)	(3,0)
1					
2					
3					

### 4-ilova.

#### O`quv topshiriqla

#### Venn diagrammasi

O'XSHASH JIXATLARINI KO'RSATING VA DIOGRAMMADA IFODALAB  
BERING



**Topshiriq. SWOT tahlili. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi**

<b>S.(Strength-Kuch)</b>	<b>W(Weakness-kuchsizlik)</b>
<b>O.(Opportunity-imkoniyat)</b>	<b>T.(Threat-xavf-xatar)</b>

Topshiriq. SINKVEYN usuli. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi

1.Nima?

2.Qanday?

3.Nima qiladi?

4.Gap(4-ta so‘zdan iborat)

5.Sinonim.

**B.B.B. usuli asosida bilimlarni sinash uchun tarqatma materiallar.**

	<b>Tushuncha</b>	<b>Bilaman</b>	<b>Bilib olidim</b>	<b>Bilishni hohlayman</b>
1	Xalqaro iqtisodiy integratsiya — bu davlatlarning o‘z iqtisodiyotlarini o‘zaro yaqinlashtirish, savdo to‘siqlarini kamaytirish va yagona iqtisodiy makon yaratishga qaratilgan jarayondir. Bu jarayon orqali mamlakatlar resurslardan samaraliroq foydalanadi va iqtisodiy o‘shishni tezlashtiradi.			
2	Integratsiya bir necha bosqichda amalga oshadi: erkin savdo hududi, bojxona ittifoqi, umumiy bozor, iqtisodiy va valyuta ittifoqi. Har bir bosqichda davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik darajasi chuqurlashib boradi.			
3	O‘zbekiston tashqi savdoni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish va eksport salohiyatini oshirish orqali jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashmoqda.			
4	O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Shanxay hamkorlik tashkiloti kabi tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilib kelmoqda.			
5	Bu jarayon mamlakatga yangi bozorlar ochadi, investitsiyalar oqimini oshiradi, zamonaviy texnologiyalar kirib kelishini ta‘minlaydi va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytiradi.			

6	Asosiy muammolar qatoriga eksport tarkibining cheklanganligi, infratuzilma yetishmovchiligi, xalqaro standartlarga moslashish zarurati va global raqobatning kuchayishi kiradi.			
---	---	--	--	--

**\1- guruh**

Topshiriq. "T" sxemasi. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi bir-biridan qaysi belgilari asosida farqlanadi qisqacha mustaqil izoh yozing.

№	<b>Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi</b>	
1	<ul style="list-style-type: none"> <li><b>Davlatlarning o'z iqtisodiyotlarini o'zaro yaqinlashtirish</b></li> </ul>	
2	<ul style="list-style-type: none"> <li><b>iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari</b></li> </ul>	
3	<ul style="list-style-type: none"> <li><b>Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish</b></li> </ul>	

4	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>Eksport tarkibining cheklanganligi,</b></li> </ul>	
---	--	--

## 2– guruh

### Topshiriq. Jadvalni to'ldiring.

	Tushuncha	Savollar
1		<b>Xalqaro iqtisodiy integratsiya nima?</b>
2		<b>Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari qanday?</b>
3		<b>O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?</b>
4		<b>O'zbekiston qaysi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi?</b>
5		<b>Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning O'zbekiston uchun afzalliklari qanday?</b>
6		<b>O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvida qanday muammolar mavjud?</b>

### 5-Topshiriq. Berilgan testlarni to'g'ri javobini toping.

#### 1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya nima?

- A) Davlatlar o'rtasida siyosiy ittifoq tuzish
- B) Iqtisodiyotlarni o'zaro yaqinlashtirish jarayoni
- C) Faqat eksportni oshirish
- D) Ichki bozorda savdoni kamaytirish

#### 2. Integratsiyaning eng boshlang'ich shakli qaysi?

- A) Iqtisodiy ittifoq
- B) Bojxona ittifoqi

- C) Erkin savdo hududi
- D) Valyuta ittifoqi

**3. Bojxona ittifoqining asosiy belgisi nima?**

- A) Ichki soliqni kamaytirish
- B) Yagona valyuta joriy etish
- C) Tashqi savdoda yagona boj siyosati
- D) Faqat xizmatlar almashinuvi

**4. O‘zbekiston qaysi tashkilot a‘zosi hisoblanadi?**

- A) Yevropa Ittifoqi
- B) Shanxay hamkorlik tashkiloti
- C) NAFTA
- D) ASEAN

**5. Xalqaro integratsiyaning asosiy maqsadi nima?**

- A) Aholi sonini oshirish
- B) Savdo va iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish
- C) Harbiy kuchni oshirish
- D) Ichki ishlab chiqarishni kamaytirish

**6. O‘zbekistonning jahon bozoriga chiqishida muhim omil nima?**

- A) Transport aloqalarining rivojlanishi
- B) Faqat qishloq xo‘jaligi
- C) Ichki bozorda yopiq siyosat
- D) Importni to‘liq taqiqlash

**7. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning afzalligi qaysi?**

- A) Raqobatning kamayishi
- B) Texnologiyalar almashinuvi
- C) Savdoning qisqarishi
- D) Ishlab chiqarishning pasayishi

**8. O‘zbekiston qaysi xalqaro moliyaviy tashkilot bilan hamkorlik qiladi?**

- A) Jahon banki
- B) NATO
- C) FIFA
- D) UNESCO

**9. Integratsiya jarayonida qanday muammo yuzaga kelishi mumkin?**

- A) Yangi bozorlarning ochilishi
- B) Investitsiyalar ko‘payishi
- C) Raqobatning kuchayishi
- D) Texnologiyalar kirib kelishi

**10. O‘zbekistonning eksport salohiyatini oshirish nimaga xizmat qiladi?**

- A) Faqat ichki iste‘molni kamaytirishga

- B) Jahon bozorida raqobatbardoshlikni oshirishga
- C) Importni oshirishga
- D) Ishlab chiqarishni to'xtatishga

### **Nazorat savollari**

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya deganda nimani tushunasiz?
2. Iqtisodiy integratsiyaning asosiy bosqichlari qaysilar?
3. Erkin savdo hududi va bojxona ittifoqi o'rtasida qanday farq bor?
4. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
5. O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi qanday yo'nalishlarda amalga oshmoqda?
6. O'zbekiston qaysi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi?
7. Xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
8. O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirishda qanday omillar muhim?
9. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning afzalliklari va kamchiliklarini tushuntiring.
10. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishida qanday muammolar mavjud?

**Uyga vazifa:** "Jahon bozori. Jahon savdo tashkiloti" mavzusi bo'yicha KRASVORD tayorlash, konspekt qilish, mavzuga oid qonun hujjatlari bilan tanishish

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Bajenova V.S., Ioxin V.YA. Ekonomicheskaya teoriya. Mikroekonomika R 1, 2. R M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K°», 2006. R 934 s.
2. SHodmonov SH.SH., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. R T.: «Fan va texnologiya». 2005. R 186 b.
3. Razzoqov A., Toshmatov SH., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. R T.: «Moliya». 2002. R 174 b.
4. Borisov E.F. Ekonomicheskaya teoriya: 2-e izd., pererab. i dop. R M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2005. R 230 s.
5. Karimov I.A. R O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T. O'zbekiston R 1993 .
6. Karimov I.A.- O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida. T. O'zbekiston R 1995.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. –Toshkent: "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5696 son Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-187-son qarori.

#### **Axborot manbaalari**

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi portali

2. [www.mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz) – O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti

3. [www.norma.uz](http://www.norma.uz) – axborot-huquqiy portal